

**4-SINF “O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSЛИGIDAGI  
HIKOYALARНИ 4K MODELI YORDAMIDA O‘QITISH**

*Gulira’no Isaboyeva Bahtiyorjon qizi*

*Qo‘qon DU Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.*

*Akbarova Munira Shavkatovna*

*Qo‘qon DU assisent o‘qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 4K modeli asosida boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligidagi hikoya o‘qitish darslarini tashkil qilish haqida yoritilgan. Boshlang‘ich sinflar uchun ushbu zamonaviy darsliklar o‘quvchilarni har taraflama rivojlantirish, nafaqat bilim, balki zamonaviy jamiyatga oson moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. O‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka olib keladi.

**Kalit so‘zlar:** “4K modeli”, kreativlik, tanqidiy fikrash, hamkorlik, muloqot.

**Abstract.** This article discusses the organization of storytelling lessons in primary school reading literacy based on the 4K model. These modern textbooks for primary school are aimed at the comprehensive development of students, not only knowledge, but also the formation of skills necessary for easy adaptation to modern society. The use of modern teaching methods leads to high efficiency in the teaching process.

**Keywords:** “4K model”, creativity, critical thinking, cooperation, communication

Ta‘lim sifatini oshirish tushunchasi bu ko‘proq o‘rganib, ma`lumotga ega bo‘lishgina emas, balki tafakkurni oshirish, katta axborot oqimidan muhimlarini tezda tanlay olish, yo‘nalishni belgilash, vaziyatni to`g`ri baholash, nostandard muammolarni yechish ko‘nikma va malakasini shakllantirishdan iboratdir. Zamonaviy o‘qituvchi bugungi kunda raqobatbardosh ta`lim bozorida o‘z mavqeyiga ega bo`lishi topishi yangicha yondashuv asosida ta`lim jarayonini tashkillashi lozim. Ta`lim sifati, birinchi navbatda, ta`lim jarayoning asosiy bo‘g‘ini, uning ham ob`yekti, ham sub`yekti sifatida o‘quv materialini egallash darajasiga bog‘liqdir. Aynan, 4K modeli bugungi kunda ta`lim sifatini oshirishda juda muhim katolizatorlik vazifasini bajaradi. 4K tushunchasi odatda kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy va hissiy sohalardagi kompetensiyalarни tasvirlashda qo`llaniladi. “4K” modeli, ya’ni tanqidiy fikrash (critical thinking), hamkorlik (collaboration), kommunikatsiya (communication) va ijodkorlik (creativity) modelidir. Ushbu model o‘quvchilarning faolligini va qiziqishini oshirish, ularning muammolarni hal qilish, har tomonlama fiklash qobiliyatini rivojlantirish va haqiqiy hayotdagi voqe-a-hodisalarga tayyorlashga qaratilgan. “4K” modeliga asoslangan ta’limda muammoni yechish usullari

o‘quvchilarning ushbu ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llashlariga yaqindan yordam beradi. Hikoya kichik hajmlı badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqeа, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. „Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir”.

Hikoya ma’no jihatidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda ham mos janr sanaladi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni asosan qahramonlarning harakteri, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqeа-hodisalar haqidagi hikoyalar qiziqtiradi. Shuning uchun hikoya bilan tanishtirish bilan o‘quvchilarga uning sujetini tushuntirish bog‘lab olib boriladi. To‘rtinchi sinf “O‘qish savodxonligi” darsligidagi hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida 4K modeli asosida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, salbiy va ijobiy holatlar haqida kritik fikrlashga o‘rgatish, lug‘at ustida ishslash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi.

Hikoya mazmuni ochish uchun odatda savollar yordamida tahlil qilinadi. So‘roqlardan ikki maqsadda:

- hikoya mazmunini tushuntirish va tahlil qilish ;

- dalillar, mulohazalar, voqealarni taqposlash, hodisalar, xatti- harakat o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va xulosalarni umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani 4K modeli asosida o‘qitishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish, o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga, suhbatdoshini tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish asosiy o‘rinda turadi. Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilar o‘ylashi, fikrlashi va o‘z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt beriladi. O‘rganilgan asar yuzasidan beriladigan birinchi savollardan ko‘zlangan maqsad hikoya bolalarga maqul kelgan yoki maqul emasligi, undagi qaysi qahramonning xatti-harakati bolaga ta’sir qilganini bilishdan iborat. Shundan so‘ng hikoya sujeti, voqeanning rivojini ochishga, personajlar xarakterini o‘rganishga, nihoyat, asarning yetakchi g‘oyasini tushunish uchun kreativ fikrlashga yordam beradigan savollardan foydalaniladi. Masalan, 4-sinf „O‘qish savodxonligi“ da “Sayroqi qushcha” (Zamira Ibrohimova) “Marvarid” (Meri Joslin), “Toshbag‘ir” (Jabbor Razzoqov), “Qanot qoqqan orzular” (Hilola Hamdomova), “Yetti hazinaning biri” (Hilola Hamdomova), “Hunarli mingni yengar” (Obiddin Mahmudov) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ushbu hikoyalar mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari va umumiy xulosalari bilan ham farq qiladi.

Masalan, “Marvarid” hikoyasida Joshning sadoqatli, sahiy do‘stligiga havas hissi uyg‘otilsa, Rubenninng xatti-harakati, boshdan kechirganlari misolida ona Vatanga mehr- muhabbat uyg‘otiladi, uning taqdiri misolida o‘z Vatanini qadrash

tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda hikoya sujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o‘rganish bo‘yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o‘quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

### **Xulosa**

“4K” modeliga asoslangan ta’limda interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘quvchilar uchun o‘qish jarayonini yanada jozibador qiladi. Interaktiv metodlar – bu o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro aloqani ta’minlaydigan, muloqotni rag‘batlantiradigan va o‘quvchilarning faol ishtirokini oshiradigan ta’lim usullaridir. Bu usullar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyatda qo‘llash, guruhda ishlash va o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘qituvchilar uchun esa ushbu metodlar darslarni qiziqarli va samarali o‘tkazish imkoniyatini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. O‘RQ-637-son. Xalq so‘zi. – Toshkent, 2020-yil 24-sentabr. No202 (7704). <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>
2. Asaqqarova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish. – Namangan, 2020. – 137 b.
3. Aminova F. O‘quvchilarni muloqot matni yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari.– Toshkent, 2007. – 130 b.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: „O ‘qituvchi”, 1980. 245-bet
5. Homidiy H. va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug 'ati. — T.: „O 'q ituvchi”, 1967. 92-bet.
6. Pohl S. Longitudinal Multistage Testing. JEM. International Study Center, Lynch School of Education. – Boston College, Chestnut Hill, 2014. – p. 193.
7. Shavkatovna, A. M. (2023, November). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ERTAKLARNING TURLARI BILAN ISHLASH. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 12, pp. 34-39).
8. Shavkatovna, A. M. (2023, November). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING TUTGAN O‘RNI. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 12, pp. 158-162).
9. Shavkatovna, A. M. (2023, November). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI ERTAK JANRI BILAN TANISHTIRISH. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 12, pp. 29-33).

10. Shavkatovna, A. M. (2023). UNUSUAL COMPOUNDS AS A FACTOR INCREASING THE LINGUOPOETIC VALUE OF THE LITERARY TEXT. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 9(5), 311-315.
11. Shavkatovna, A. M. (2023). Unusual Compounds: Oxymoron and Occasionalism. *Open Access Repository*, 9(7), 148-150.
12. Shavkatovna, A. M. (2023, November). OKSYUMORON–BADIY, LINGVOPOETIK VOSITA. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 12, pp. 153-157).
13. Shavkatovna, A. M. (2023, November). G‘AYRIODATIY BIRIKMALAR VA ULARNING BADIY MATNDA QO‘LLANILISHI. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 12, pp. 163-167).
14. Shavkatovna, A. M. (2023). UNUSUAL COMBINATIONS IN THE INTERPRETATION OF PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOV. *Open Access Repository*, 9(11), 137-140.
15. Shavkatovna, A. M. (2023, November). SINESTETIK METAFORA VA GAYRIODATIY BIRIKMALAR. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 12, pp. 40-44).
16. Shavkatovna, A. M. (2023, November). SINESTEZIYA VA GAYRIODATIY BIRIKMALAR. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 12, pp. 148-152).
17. Shavkatovna, A. M. *G‘ayriodatiy birikmalar badiy matnning lingvopoetik qiymatini oshiruvchi omil sifatida*. Муаллим ҳам узликсиз билимленидириў. Илимий-методикалық журнал, 28-32